

MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Aliboyev Turgun Chindaliyevich

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrası

katta o'qituvchisi, PhD, Jizzax, O'zbekiston

e-mail:aliboev_t@jspi.uz

***Annotatsiya.** Ta'lim jarayoniga mukammallik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali samaradorligini oshiruvchi tadqiqot olib borilmoqda. Shulardan biri muammoli o'qitish texnologiyasi tizimi va usullaridir. Maqolada ana shular haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** o'zlashtirish, texnologiya, muammoli ta'lim, zamonaviy ta'lim texnologiyasi, mezon, tartiblilik, ravonlik*

***Аннотация.** Проводятся исследования, повышающие эффективность образовательного процесса за счет придания ему признаков совершенства, точности, упорядоченности, беглости, сдержанности. Одним из них является система и методы технологии обучения муа. Именно о них и шла речь в статье.*

***Ключевые слова:** овладение, технология, проблемное обучение, современные образовательные технологии, критерий, упорядоченность, беглость*

***Annotation.** Research is being carried out to increase the effectiveness of the educational process by giving signs of excellence, accuracy, pathability, regularity, fluency, weight. One of these is the problematic teaching technology system and methods. The article provides about ana shular.*

***Key words.** mastery, technology, problem-based learning, modern educational technologies, criterion, orderliness, fluency*

Oliy ta'lim muassasalarida, o'qitish – o'quv materialining to'la o'zlashtirilish prinsipiga tayanmog'i lozim, ya'ni fanning o'quv dasturiga asoslangan o'quv material, guruhning barcha talabalari tomonidan to'la o'zlashtirilishi zarur.

«O'quv materialining to'la o'zlashtirilishi» tushunchasi nimani anglatadi? Har qaysi mavzu bo'yicha o'rnatilgan darajadagi bilim olishga erishilishi, o'quv materialini to'la o'zlashtirish prinsipini anglatadi. Chet elda o'tkazilgan ko'p sonli tadqiqotlarga ko'ra «talabalarning to'la o'zlashtirilishi» tushunchasi o'quv materialining guruhdagi har bir talaba tomonidan 80-90% ga o'zlashtirilishi tushuniladi, ya'ni har bir talaba o'quv fanini o'rtacha 85% ga o'zlashtirishi zarur. Bunday natija faqat juda nna tajribali ajoyib professor-o'qituvchilarda esa o'quv materialining bunday o'zlashtirilishini faqat iqtidorli talabalar berishi mumkin.

Bu sharoitda, qanday qilib talabalarning to'la o'zlashtirishiga erishish mumkin? Bunga erishishning uch yo'li bor:

Birinchi yo'l: o'zlashtirish mezonini pasaytirish, hozirgi paytda shundan foydalanayapti, shuning uchun ham hozirgi paytda o'quv materialini, o'quv fanini 55% o'zlashtirgan talaba o'zlashtiradigan talaba deb hisoblanadi.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti kadrlarning saviyasi va tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar chegarasini belgilaydi. Agar bu minimal talablar 55% ga o'zlashtirilsa, har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishining umumiy integral bahosi qancha bo'ladi degan savol tug'iladi. Tabiiyki bu yo'lning istiqboli yo'qdir.

Ikkinchi yo'l: professor-o'qituvchilar tarkibini faqatgina oliy darajali ajoyib professor va dotsentlar asosida tuzish. Ularning har biri o'ziga xos o'qitish usullari va yo'llari tufayli tayyorgarlik darajasi butunlay har xil bo'lgan, talabalarni to'la o'zlashtirishni ta'minlaydilar.

Talabalarning hammasi iqtidorli bo'lmaganidek, professor o'qituvchilar tarkibining hammasi ham iqtidorli, oliy darajali bo'la olmaydi.

Uchinchi yo'l: o'quv jarayoniga o'qituvchiik texnologiyalarni joriy etish bo'lib, ular o'qish va o'rgatishning asosiy elementlarini o'rnatib, o'zida oliy darajadagi o'qituvchi olimlarning o'qitishdagi uslub va yo'llarini mujassamlashtirgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishda malakasi uncha yuqori bo'lmagan oddiy ishchi tayyor texnologiya bo'yicha oliy sifatli mahsulot ishlab chiqarganidek, oddiy o'qituvchi, o'qituvchiik texnologiyani qo'llab, ajoyib natijalarga erishadi. O'qituvchiik texnologiyaning qimmati va ahamiyati aynan shu bilan belgilanadi.

Ommaviy o'qitish sharoitida talabalarning to'la o'zlashtirishga erishishini ta'minlaydigan yagona to'g'ri yo'l – shu yo'ldir. O'qituvchiik texnologiya, ishlab chiqarish texnologik jarayoniga o'xshab ko'zlangan (rejalashtirilgan) natijalarga erishishni kafolatlaydi.

O'qituvchiik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'limdan nima bilan farq qiladi?

Hozirgi kunda o'qituvchilik adabiyotlar, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «Progressiv o'qituvchiik texnologiya», «Zamonaviy ta'lim texnologiyasi» iboralari keng qo'llanilmoqda. Ammo «O'qituvchiik texnologiya» tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda izohlanganicha yo'q, mazmunining yagona talqini ham ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundankunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiyada depsinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ta'lim jarayoniga mukammallik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali samaradorligini oshiruvchi tadqiqot olib borilmoqda. Shulardan biri muaammoli o'qitish texnologiyasi tizimi va usullaridir.

Muammoli ta'lim XX asrning 20-yillarida Amerikalik olim J.Dьyui va uning shogirdi V.X.Kilpatrik tomonidan taklif etilgan. Bu texnologiya ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlar qo'yilishi va talabalarning ushbu muammoni hal etish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga asoslanadi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi quyidagi usullar vositasida muammoli vaziyatlar hosil qiladi:

- o'qituvchi talabalarga ziddiyatni ko'rsatib, ularning hal etish yo'lini topishga undaydi;

- faoliyatdagi qarama-qarshiliklar bilan to'qnashtiradi;

- bir mavzu bo'yicha turli qarashlarni bayon etadi;

- auditoriyada talabalarga hodisalarni turli nuqtai-nazardan qarab chiqishni taklif etadi

- talabalarni taqqoslashga, umumlashtirishga, vaziyatdan xulosa chiqarishga, dalillarini solishtirishga undaydi;

- talabalar oldiga aniq savollar qo'yib, ularni umumlashtirishga, asoslashga, aniqlashtirishga, mantiqiy fikrlashga chaqiradi;

- muammoli nazariy va amaliy topshiriqlar beradi;

- muammoli masalalarni taklif qiladi.

Muammoli vaziyatlarni amaliyotda qo'llash uchun quyidagilarni bilish kerak:

1. Vaziyatga qarab eng dolzarb muammolar tanlash.

2. O'quv mashg'ulotlarida muammoli ta'lim xususiyatlarini aniqlash.

3. Muammoli ta'limning eng samarali tizimini yaratish.

4. O'qituvchining talabalar taqiqot ishini tashkil etishdagi mahorati.

5. Muammolarni hal etishdan kutilayotgan natijalarning amaliy, nazariy, bilim olishga oid ahamiyati.

Mashg'ulotlarni muammoli tariqa olib borish talabalar faolligini oshiradi va ularni darsga ongli ishtirok etishga undaydi. Muammoli dars o'quvchi tomonidan muammoli vaziyat o'tkazish, laboratoriya ishlarini bajarish, masalalar yechish orqali amalga oshiriladi va talabalar ishtirokida muammo oydinlashtiriladi.

Muhokama etiladigan muammo talabalar bilimiga mos bo'lmog'i, unga erishish uchun talabalarda qiziqish uyg'otmog'i lozim.

Muammoli darsni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

1. Talabalar o'zi muammoni qo'yib, o'zi masala yechishni ko'rsatib beradi.
2. O'qituvchi muammoli vaziyatni yuzaga keltirib talabalar ishtirokida muammoni hal etadi.
3. Muammo faqat talabalar tomonidan yechiladi.
4. Talabalarga muammoni qo'yishni va uni hal etish taklifi beriladi.

Muammolilik tizimi o'quv jarayonining mantiqiy tuzilishni, o'rganilayotgan materialning mazmunini, talabalarning o'quv o'zlashtirish faoliyatlarini tashkil qilish usullarini, ularni boshqarishni, dars texnologiyasini va o'qituvchining talabalar faoliyati natijasini nazorat qilishni aks ettiradi. Agar o'qituvchi muammoli o'qitishni tashkil qilish nazariyasining mohiyatini va mazmunini, o'qitishning texnik vositalarini, usullarini, shakllarini yaxshi o'zlashtirsa va ularni amaliy faoliyatida ijodiy qo'llay olsa, u xolda muvaffaqiyat o'z-o'zidan keladi.

O'qituvchining yaxshi didaktik tayyorgarligi juda muximdir, chunki umumiy nazariyani yaxshi bilmay turib, ishga ijodiy yondoshish mumkin emas. O'qitish jarayoni san'at bo'lib, o'z faniga talabalarni jalb qilish, fikriy bilishning go'zalligini namoyon qilish, talabalarni mustaqil fikrlashga undashdan iborat.

Xar tomonlama rivojlangan shaxsning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, ulardagi fikrlash qobiliyatining mavjudligi xisoblanadi. Agar o'qitish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga olib kelsa, u xolda uni rivojlantiruvchi o'qitish bilan birga olib borilsa, bunday o'qitishda, o'qituvchi fikrlash qobiliyatining konuniyatlariga suyangan xolda, maxsus o'qituvchilik vositalar asosida talabalarning bilishga intilishi va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan fanning asoslari o'qitish jarayonidan iborat bo'lsagina bunday o'qitish muammoli bo'ladi.

Muammoli o'qitish yo'li bilan faollashtirish maqsadi shundan iborat bo'ladiki, unda tasodifiy jamlangan aloxida fikrlash qobiliyatini o'rgatish darajasidan iborat bo'lmay, maqsadli vazifalarni yechish uchun fikriy ta'sirlarni tizimli olib borish zarur. Bunday faollikda talaba taxlil, solishtirish, sintezlash, umumlashtirish va amalda uni konkretlashtirib, yangi ma'lumot olishdan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, bu avval o'zlashtirilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat. Avvalgi bilimlardan foydalanib bunday xulosalarga kelishni na o'qituvchi va na kitob o'rgata oladi, u talaba tomonidan izlanadi va topiladi – bu esa bilishning izlanuvchan usulidan iborat.

Demak, muammoli o'qitishning vazifasi talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy xamda amaliy faoliyatlarining usullarini samarali o'zlashtirishga xamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash

malakasini xosil qilish, o'quv va tarbiya muammolarini xal qilishdan iborat.

Shunday qilib, insoniyat rivojlanishining hozirgi bosqichida muammoli ta'lim juda zarur, chunki muammoli o'qitish xar tomonlama rivojlangan, tanqidiy fikrlovchi, turli xil muammoli vaziyatlardan chiqar olish imkoniga ega bo'lgan, bilimlarni to'play oluvchi va tizimlashtira oluvchi, o'zining rivojlanishini, taxlil qila oluvchi xamda to'g'rilay oluvchi shaxsni yaratadi va shakllantiradi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Olimov Q.T. Ashurova S.Yu. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" Toshkent-2007 87 b.
2. Ishmuxamedov R.J. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" Toshkent-2008
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. Toshkent. O'qituvchi 1995 y.
4. Muslimov N.A. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi. Toshkent 2009. 472 b.
5. Pedagogika / A.Q. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. - T.: "O'qituvchi", 1996. - 200 b.